

MAKTABGACHA YOSH DAVRDA PSIXIK RIVOJLANISHDA O'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

Samarqand viloyati Payariq tumani
88-maktab o'qituvchisi Nafisa Akbayeva

Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

SH.M.Mirziyoyev

Annotatsiya. Tezida kichik maktab yoshidagi bolani maktab ta'lim tizimiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tizimining samaradorligi juda katta ahamiyat kasb etishi haqida so'z boradi.

Kalita so'zlar: o'yin , xotira, rivojlanish, muassasa, mashg'ulot,xarita, tajriba,sifatli ta'lim,faoliyat,"Ilk qadam"

Bizga ma'lumki bola ulg'ayib borgan sain mustaqil barakat qilish imkoniyati oshib boradi. Atrofdagi narsa va hodisalarni ko'rishi,o'rganishi natijasida dunyoqarashi kengayadi.

Maktabgacha yosh davrda bolalarda asosan o'yin faoliyati ko'proq xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Bola eshitganidan ko'ra ko'proq ko'rganini tezroq eslab qoladi. Ularning nutqi va tafakkurini rivojlantirishda,diqqatini jamlashda,dunyoni anglay olishiga va jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishishiga nafaqat ertaklar o'qib berish , balki o'qigan ertaklarini sahnalashtirish, bolalarga qayta hikoya qilib berish ,pantomimalar o'tkazish ,rasmlar asosida kichik hikoyalar tuzish va qo'g'irchoq teatrlar tashkil qilish samaras juda katta bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Bunda muassasalarga barcha yosh guruhlarga mo'ljallangan "Beshta markaz" tashkil etilgan. Bu markazda tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda juda ko'p qulayliklar yaratilgan. Markaz "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida faoliyat olib boradi.

Bular quyidagilar:

Nutq va til markaz.Bolalarni nutqini o'stirish , atrof-muhitga va badiiy adbiyotlar bolan bog'liq mashg'ulotlar olib boradi. Xotira va diqqatni rivojlantirish , diqqat bilan tinglash , tezkorlik bilan javob berishga , ranglar haqidagi tasavvurlarini mustahkamlashda , do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishda ushbu markaz juda katta samara beradi .

Qurish-yasash, konsturaksiyalash va matematika markazi. Bolalarni ijodkorlika o'rgatish va bir-birlari bilan do'stona muloqotga kirishga undaydi. Bolalarda sensor tarbiya rivojlanadi . Ular o'z qo'llari bilan yasagan o'yinchoqlaridan teatr, stol va barmoq teatrini sahnalashtirishda foydalanishlari mumkin. Bunda bola oddiy tomoshabin bo'lib qolmasdan , mehnat qiluvchi ijodkorga aylanadi.

San'at markazi. Markazda ishlashda bola ham miyyani, ham qo'l motorikasi ishlaydi. Loy ishlari, rassomchilik bola nutquni yaxshi rivojlanishiga sabab bo'ladi. Aynan barmoq uchlaridagi sezgi organlari bosh miyaning nutq shakllanishiga ta'sir etuvchi markazi bilan bog'liq bo'lgani uchun haykaltaroshlik mashg'ulotlari bolalarda badiiy estetik mazmundagi bilim va amaliy malakalarini shakllantirish bilan birga fikrlash, nafis differensial harakatlarni koordinatsiya qilish imkoniyatlarini oshiradi. Raqsga tushish go'zallik va jozibadorlikni namoyon etadi. Ashula ijro etish,ayniqsa xor bo'lib, bir-birini eshitib,tinglab kuylashga undaydi.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi. Bu markaz bolalarning eng sevimli markazi hisoblanadi. Bunda bolalar ertak qahramonlariga aylanadi va ularga o'zlarini taqlid

qilib ko’rishadi. Eng avvalo ushbu markaz uchun kerakli jihozlar tanlab olinadi. Bolalar kichik sahna va syujetli-rolli o’yinlar uchun arbitutlar, ertak qahramonlarini tarbiyachi yordamida hamda birgalikda jamoa bo’lib tayyorlab yasab olishi juda maroqli va mazmunli bo’ladi. Ular o’zlari yasagan qahramonni o’zlari jonlantira olishi, o’zlari tilga kirib rol ijro etishni juda istaydilar va ular uchun bu eng qiziqarli hamda zavqli mashg’ulot hisoblanadi.

Ilm-fan va tabiat markazi. Bu markazda bolalar tabiat hodisalari, tabiatda ro’y berayotgan o’zgarishlar, tajriba-sinov maydonchasida o’tkaziladigan tajribalar haqida keng tasavvurlarga ega bo’lishadi. Markaz faoliyati to’g’ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarni 80- 90 foizini o’zlashtirib oladilar. Hayotimizda kerakli bo’lgan narsa- buyumlarni qanday ishlab chiqarilganligi, nimalardan olinganligi, yasalganligi haqidagi ma’lumotlar oladilar. Bolalar o’z qo’llari bilan urug’larni tuvaklarga ekib, unga suv qo’yishi va urug’ unib chiqishini kuzatish bola uchun qiziqarli faoliyat sanaladi.

Mazkur yoshdagi bolaning rivojlanish xaritasi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatliligi va samaradorligini aniqlaydi. Xarita yil yakuniga kelib hisoblab chiqiladi. Masalan, boladagi:

- Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzini shakillantirish
- Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- Nutq, muloqot, o’qish va yozish ko’nikmalari
- Ijodiy rivojlanish

kabilar uni maktab muhitiga tayyorlovchi asosiy mezonlar sanaladi.

O’yin bolalarni xotirasini, fantaziyasini va jismoniy faolligini oshiradi.

Ayniqsa, jismoniy tarbiya mashg’ulotlarini musiqali tarzda tashkil qilish bolalarga zavq bag’ishlaydi. Ular har bir harakatlarni kuy, qo’shiqlarga moslab bajarishadilar. Bundan tashqari jismoniy tarbiya jihozlari orqali o’yinlar o’ynash qiziqarli bo’ladi. Masalan, koptok bilan "so'z " o'yinini o'ynash. Bunda bolalar aylana bo'lib turadilar. Tarbiyachi o'rtaga turadi. Qo'lidagi koptogni bir bolaga otadi va so'z aytadi. Masalan, uy hayvoni desa, bola koptogni ilib olib mushuk, deydi. Ikkinchi bolaga qushlar desa, esiga kelgan qushni nomini aytadi. To'xtab qolgan yoki so'zni takrorlagan bola o'yindan chiqib turadi. O'yin bolalardan tezkorlik va chaqqonlikni talab qiladi.

Yana bir qancha didaktik o’yinlar tashkil qilish mumkin. Didaktik o’yinlar bolani keng fikrlashga o’rgatadi. Shunday qilib maktabgacha yosh davrda o’yin yetakchi faoliyat sanaladi. Bu davr nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola va kattalar o’rtasidagi yangi munosabatlar, kattalar obrazi bolaning xatti-harakatlarni ma’lum tomonga yo’llaydi. Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarni psixik rivojlantirishda, jismonan barkamol bo’lib ulg’ayishida, ularni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashda ushbu markazlar juda samarali yo’lga qo’yilgan deb o’ylayman va bu albatta ijobiy natija ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son „2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarori
2. „Ilk qadam” davlat o’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligini 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig’ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi
3. Maktabgacha ta’lim. Ilmiy metodik oylik jurnal. 12(289)-son 2019
4. Maktabgacha ta’lim. Ilmiy metodik oylik jurnal. 01(278)-son 2019
5. O’Gilkontolibjonovna, V. (2023). AXBOROT MUHITI YOSHLAR IJTIMOY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRINI TADQIQ ETISHNING METODIK JIHATLARI. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22.